

JANUBIY OROL BO'YI (AMUDARYO O'NG QIRG'OG'I) ANTIK DAVR SHA HARSOZLIK MADANIYATI

Bekmuratov Yersultan Yerboy o'g'li

Qoraqalpoq Davlat universiteti, Arxeologiya fakulteti

1- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14969978>

Annotatsiya: Qoraqalpoqlar turkiyzabon xalqlar turkumiga kiradi. Ularning ko'p asrlar davomida shakllangan tarixi qadimgi Orolbo'yi mintaqasining dasht qabilalaridan boshlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatlarining mashhur tadqiqotchisi S.P.Tolstovning fikricha, Orol dengizining janubiy qirg'og'ida yashagan sak va massaget qabilalari (orol va botqoqlik massagetlari), qoraqalpoqlarning eng qadimgi ajdodlari hisoblanadi. Ular baliqchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan yarim ko'chmanchi qabilalar hisoblanishgan.

Kalit so'zlar: orol bo'yi mintaqasi, baliqchilik, chorvachilik, Volga, Oltin O'rda.

AMUDARYO — Turkiston o'lkasidagi eng sersuv, yirik daryo. Amudaryoni yunon va rimliklar Oksus yoki Oksos, arablar Jayxun, yerli xalqlar dastlab O'kuz, Balx, Vaxsh, so'ngra Amul deb ataganlar. Amudaryo quyi va o'rta to'rtlamchi davrda Qoraqum orqali o'tib, Kaspiy dengiziga quyilgan, tog'lardan suv oqimi bilan keltirilgan oqiziqqlarning yotqizilishi natijasida qumlar tarkib topgan. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy «Amudaryo tarixi» asarida yozib qoldirgan. Yuqori to'rtlamchi davrda Amudaryo hozirgi o'zani bo'yicha oqqan. Miloddan avvalgi 10-mingyillikdan 2-ming yillikkacha Xorazm botig'ini va qisman Sariqamish botig'ini to'ldirgan. [1]. Oqimining bir qismi Janubiga oqib, hozirgi O'zbo'y o'zanini vujudga keltirgan va Kaspiy dengiziga quyilgan. Shu davrda Sariqamish bo'yi deltasi tarkib topgan. Miloddan avvalgi 3-va 2-ming yilliklar orasida Amudaryo hozirgi Tuyamo'yin qisig'idan shimoliga Oqchadaryo o'zanida oqib Orol dengiziga uning Janubi-sharqidan quyilgan va Oqchadaryo deltasi tarkib topgan. Miloddan avvalgi 2 — va 1-ming yilliklarda Amudaryo hozirgi yo'nalishda [2], ya'ni Orol dengiziga Jan.dan quyila boshlagan. Miloddan avvalgi 1-ming yillikning o'rtasida hozirgi Orol bo'yi Amudaryo deltasi (Orol bo'yi deltasi) vujudga kela boshlagan. O'sha vaqtdan Amudaryo Orol dengiziga quyilmoqda. Ba'zan oqimining bir qismi Sariqamish ko'liga ham borib turgan. 13-asrda mo'g'ul bosqinchilarining Xorazm davlatiga hujumi vaqti (1220) da Amudaryoning chap qirg'og'idagi damba va to'g'onlar buzib tashlangan, natijada Amudaryo suvi yana Dovdan va Daryoliq quruq o'zanlari orqali Sariqamish botig'iga oqqan. Keyinroq to'g'on va dambalar tiklangach, Amudaryo yana avvalgi o'zani orqali Orol dengiziga quyila boshlagan. 14-asrda o'zaro urushlar sababli qirg'og'idagi inshootlar buzilgan, suv yana Sariqamishga oqqan, O'zbo'y o'zanida suv hatto Kaspiy dengiziga yo'nalgan. 17-asr boshida Amudaryoning chap qirg'og'idagi to'siqlar yana qayta tiklanishi bilan suv eski o'zani orqali oqa boshlab, 18-19-asrlarda ba'zan oqimning bir qismi Sariqamishga oqqanligi tarixiy manbalarda

1 Воробьева М.Г. Ранние терракоты древнего Хорезма // История, археология и этнография Средней Азии – М.: Наука 1968. – С. 135–147.

2 Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко–археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – 352 с.; ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М. – Л.: АН СССР, 1948. – 328 с.

3 Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. – М., 1960. Вып. 3. – 348 с.

4 Гуломов Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1959. – 324 б.; Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.; Наука, 1969. – 254 с.

qayd etilgan. Amudaryo yuqori qismida Tojikiston va O'zbekistonning Afg'oniston bilan chegarasidan oqadi[3]. Amudaryoning uzunligi 2540 kilometr (Vahjir — Vohondaryo bilan birga), havzasining maydoni qariyb 465 ming kilometr kvadrat, shundan 227,3 ming kilometr kvadrat suv to'playdigan tog'li qismiga to'g'ri keladi. Amudaryo Afg'onistonda Hindukush tog'larining shimoliy yon bag'ridan 4950 metr balandlikdagi muzlikdan boshlanadi; Vohondaryo Pomirdagi Zo'rko'ldan chiqib keladigan Pomir daryosi bilan qo'shilgandan keyin Panj deb ataladi. Panjga o'ngdan G'unt, Bartang, Yazg'ulom, Vanj, Qizilsuv irmoklari kelib qo'shiladi, nihoyat, eng yirik va sersuv irmog'i — Vaxsh daryosi qo'shilgandan so'ng Amudaryo nomini oladi; bu qismida unga yana chapdan Qunduzdaryo, o'ngdan Kofarnixon, Surxondaryo qo'shiladi [4]. Sheroboddaryo suvi esa Amudaryoga ahyon-ahyonda etib boradi, undan G'arbdagi Ko'hitangdaryo suvi ham yo'l-yo'lakay sug'orishga sarf bo'ladi. Surxondaryo quyilgandan keyin Amudaryoga to Orol dengiziga yetguncha 1200 kilometrdan ziyod masofada boshqa irmoq qo'shilmaydi. Zarafshon bilan Qashqadaryo esa Amudaryoning qadimgi irmoqlari bo'lib, ularning suvi butunlay sug'orishga sarflanadi. Amudaryoning asosiy suv rejimi uning yuqori, tog'li qismida shakllanadi. Bu joyda Amudaryo tor, ba'zan chuqur va nishabi katta o'zandan oqadi. O'zan o'rta hisobda har bir kilometrga 4 metrdan (ayrim joylarda esa 10 metrdan ham ko'p) pasayib boradi. Shu tufayli daryo juda tez oqadi, oqimning tezligi 4-6 m³/sek. Daryo vodiysi ham tor, u Pomir tog' sistemasiga kiruvchi tik ko'tarilgan qoyali tog'larni aylanib o'tadi. Tog'oralaridan jo'shqin irmoqlar kelib qo'shiladi. Vodiy eni 3-4 kilometrdan oshmaydi, ba'zi joylardagina uchraydigan qayirlar ko'pincha to'qayzor. Qizil-suv, Vaxsh, Kofarnihon, Surxondaryo quyiladigan joylarda daryo vodiysi kengaygan va bu yerlarda oqindi jinslardan tarkib topgan terrasalarda dehqonchilik qilinadi, ba'zan terrasalar qalin to'qayzorlardan iborat. Amudaryo Surxondaryo qo'shilgandan so'ng tekislikdan oqa boshlaydi va taxminan Karkidan Pitnakkacha bo'lgan oraliqni daryoning o'rta oqimi deb hisoblash mumkin. Daryo tekislikka chiqqach, Qoraqum va Qizilqum cho'llaridan o'tib, Orol dengiziga quyiladi. O'rta qismida o'zanning o'rtacha kengligi 1500 metr. Daryoning tekislikdan oquvchi qismida nishabi kam (har bir kilometrga 0,2—0,3 metr). Daryo oqimining tezligi kattaligidan (2-3 m/sec) o'zan va qirg'oqlarini muttasil yemiradi, shu sababli o'zan doimo o'zgarib turadi. Amudaryoning o'rta va quyi oqimida, ayniqsa, Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonda (Urganch, Ellikqal'a) qirg'oqlarning o'pirilish hodisasi — deygish kuzatiladi. Keyingi davrda Daryo o'zanining yuvilishi ham kuzatilmoqda. 1990-yillardan Amudaryo quyi oqimi Tuyamo'yin suv ombori orqali boshqarilgach, bu yerlarda deygish hodisasining ta'siri bir oz pasaydi. Qishda daryoning yuqori oqimida asosan qirg'oqqa yaqin joylari muzlab, shovush hosil bo'ladi va qisqa muddat muz oqadi, Karki shahri yaqinida qish qattiq kelgan yillari esa 10-15 kun davomida daryo yoppasiga muzlaydi. Chorjo'y shahri va undan quyida daryoning yoppasiga muzlashi undan ham uzoqroq davom etadi. Nukus shahridan kuyida esa daryo deyarli to'rt oy davomida butunlay muzlaydi. Erta bahorda ayniqsa, o'zan keskin burilgan va tor joylarda muz tiqilib suv sathi keskin ko'tariladi va ba'zan toshqinga sabab bo'ladi. Tekislikda Amudaryo vodiysining eni 10— 15 kilometr bo'lib, ayrim joylarda 20-25 kilometrga etadi. Vodiy kengaygan joyda uchta terrasa vujudga kelgan. Daryoning past tog'lar

orasidan o'tgan joylarida vodiyning eni 350-380 metrdan oshmaydi. Pitnak yaqinida Tuyamo'yin, o'rta oqimida Duldulhatlagan va Eljik qisiqlari bor. Tekislik qismida daryoning har ikkala sohilida kumgildan tarkib topgan, eni 2-3 kilometr keladigan qayirlar uchraydi. Amudaryoning kuyi oqimi Pitnak yaqinidagi Tuyamo'yin qisig'idan to Orol dengiziga qadar boradi, quyi oqimining uzunligi 500 kilometr, shundan 325 kilometr Nukus bilan Orol dengizi oralig'iga — daryoning hozirgi deltasiga to'g'ri keladi. Amudaryo sersuv daryo, muzlik va qorlardan suv oladi, havzasida 1000 ga yaqin muzlik (shu jumladan, yer kurrasidagi eng katta tog'-vodiy muzligi — Fedchenko muzligi) bor. Suv yig'ish havzasida katta maydonlarni qor dalalari egallagan. Amudaryoda eng ko'p suv oqimi iyun — iyulda, eng kam oqim dekabr — martda sodir bo'ladi. Qish mavsumida faqat grunt va zovur suvlari hisobiga to'yinadi. Eng ko'p suv okimi Karki shahri yaqinida 9180 m³/sek (98,7 km³, 1969), eng kam suv oqimi o'sha joyda 465 m³/sek (1930) qayd etilgan. O'rtacha ko'p yillik (1926-73 yillar) suv oqimi Karki shahri yaqinida 68,1 km³ ga teng. Daryoning to'linsuv (41 km³) davri may — iyulda yuz beradi; aprel — sentabrda oqim 12 km³, kuz va qishda oqim birmuncha tekisroq taqsimlanadi, novegetasiya davrida oqim 15 km³ (yoki butun oqimning 22%) ni tashkil qiladi. Amudaryoda oqimning miqdori Orol havzasida havo massalarining regional tsirkulyasiya xarakteriga bog'liq, yog'in har 4-5 yidda kamroq tushib, har 6-10 yilda ko'proq bo'lishi aniqlangan. Amudaryo havzasida eng so'nggi suv taqchilligi davri 1995 yildan boshlandi va 2002 yilgacha davom etishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. 60-yillardan suv xo'jaligi va sug'orish ishlarining jadal rivojlanishi natijasida Amudaryo oqimi tartibi va miqdori keskin o'zgara boshladi. Masalan, 60 yillargacha o'rtacha yillik oqim miqdori Karki shahri yonida 2080 m³/sek, quyi oqimi (Chatli)da esa 1500 m³/sek ni tashkil etgan. 80-yillarda ulardagi suv sarflari Karki shahri yonida 1850 m³/sek va Chatlida 170 m³/sek ga teng bo'ldi. Amudaryoning Orol dengiziga kuyilishiga yaqin qismida joylashgan Qiziljar kuzatuv manzilida undan ham kam (160 m³/sek) suv miqdori qayd etilgan. 90-yillarning 1-yarmida Orol dengizini qutqarish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida Amudaryo deltasiga kelayotgan suv miqdori 1995 yilgacha birmuncha ortdi (yiliga ba'zan 24,2 km³ gacha). Amudaryo suvi tabiiy holatda (60-yillargacha) aprel — avgustda ko'paygan. Lekin ko'plab yirik suv omborlari (Norak, Tuyamo'yin va boshqa) qurilishi daryo suvining ma'lum darajada kamayishiga olib keldi. 60-yillargacha Amudaryo suvi nihoyatda loyqa, o'rta hisobda har bir metr kub suvda 3740 gramm oqizik bo'lgan; o'rtacha yillik oqiziq miqdori Karki yonida 210 million tonna, deltada esa 100 million tonnaga yetgan. Ular sug'orish tizimlari va dalalarda cho'kib qolgan. Amudaryoning oqiziqqlarida o'simliklar uchun oziq bo'lgan ohak, kaliy, fosfor kabi mineral moddalar bor. Yirik suv omborlari qurilishi natijasida daryo suvining loyqaligi keskin kamaydi. 80-yillarning 2-yarmi — 90-yillarning boshlarida loyqa miqdori yiliga Karki yonida 90 million tonnaga, quyi oqimi (Chatli) da esa 18 million tonna bo'ldi. Amudaryoning suv rejimi antropogen omillar ta'sirida o'zgarmagan davrida daryo har yili dengizga qariyb 18 million tonna tuz keltirgan. Hoz. kunda bu miqdor keskin kamaydi, lekin umumiy oqim miqdorining kamayishi hisobiga daryo suvining minerallashuv darajasi ancha ortdi. Amudaryo havzasidagi vohalardan zovur tashlamalari (yiliga o'rtacha 20 km³) ning qariyb yarmi daryoga oqizilishi suv sho'rligining ortishiga sabab bo'lmoqda. Surxondaryo Amudaryoga qo'yilgandan so'ng suvning minerallashuv darajasi o'rtacha 0,4—0,6 g/l ga, Tuyamo'yin gidrouzelidan so'ng 1,0—1,2 g/l, Chatli — Temirboy oralig'ida esa 1,4—2,5 g/l ga ortib bormoqda. Daryo suvining minerallashuv darajasi mart — aprelda zovur suvlari

hisobiga yuqori bo'ladi, yozda esa qor va muzliklarning erishi bilan keskin kamayadi. Amudaryo o'zaniga minerallashgan suv asosan Qarshi vohasi (7,7 g/l), daryoning Turkmaniston sohilidagi sug'oriladigan yerlardan (3,5 g/l), Buxoro vohasidan (3,5 g/l) tushadi. Amudaryoga tushayotgan zovur va korxonalar oqova suvlarida sulfat va xlor, magniy, natriy tuzlarining salmog'i ancha ortgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra Amudaryo suvi tarkibida azot nitrati, neft mahsulotlari, fenol, mis, rux, pestisidlarning miqdori ruxsat etilgan me'yor (REM) dan bir necha (2-5) baravar ko'pligi aniqlandi. Ifloslangan suv Amudaryoning Termizdan Orol dengizigacha bo'lgan qismiga to'g'ri keladi. Suvning ifloslanganligi Zarafshon, Qashqadaryo, Quyi Amudaryo vohalaridagi aholi orasida 70-yillardan boshlab turli kasalliklarning tarqalishiga, chorva mollarining nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Tuyamo'yin suv omboridan olingan suv pestisid, kimyoviy moddalardan tozalanib, minerallashuv darajasi 0,6— 0,8 g/l gacha kamaytirilgach, Nukus, Urganch, Toshhovuz shaharlariga quvurlar orali uzatilmoqda. Amudaryo suvining tozaligini muhofaza qilish uchun daryoning o'ng sohili bo'ylab maxsus tashlama — Sho'rdaryo qurilishi loyihalangan. Loyihada Surxondaryo, Qarshi, Buxoro, Qoraqalpog'iston va boshqa vohalarning zovur suvlarini tashlama orqali Orol dengiziga oqizish mo'ljallangan. Sho'rdaryoni qazish Buxoro viloyatida boshlandi. Amudaryoning sug'orishda ahamiyati juda katta. Chorjo'y va Xorazm vohalarida yerlar qadimdan sug'orilib, dehqonchilik qilib kelinadi. Amudaryoning suv zaxiralaridan keng miqyosda foydalanish 80-yillardan avj olib ketdi. Amudaryoning yuqori qismida Vaxsh, Kofarnihon, Surxondaryo kabi irmoqlaridan kanallar chiqarilib, Tojikiston va O'zbekistonda yangi yerlar o'zlashtirildi. Amudaryoning o'rta oqimida 1954 yilda Qoraqum kanali qurilishi boshlandi. Buxoro yerlarini Amudaryo suvi bilan sug'orish uchun Amu Qorako'l kanali, Amu-Buxoro mashina kanali, qarshi magistral kanali qurildi. Amudaryo quyi qismida Toshsoqa, Shovot, Qilichniyozboy, Qipchoq-Bo'zsuv, Suenli, Paxtaarna, Qizketken, Kegeyli, Quvonishjarma irrigasiya tizimlarining ta'mirlanishi natijasida ayni vaqtda Taxiatosh gidrouzeli (1974) va Tuyamo'yin gidrouzeli (1978) qurib bitkazildi, daryodan kanallarga suv olish hajmi ko'paydi. Hozirgi kunda Amudaryoning eski o'zanlari izidan Daryoliq va Ko'lli tashlamalari ishga tushirilgan. [5]Xorazm vohasidan yer osti sho'r suvlari Sariqamish ko'liga shu tashlamalardan oqizilmoqda. Tashlamalar orqali Sariqamish botig'iga yiliga 4,5—5,0 km³ suv tashlanmoqda. Amudaryoning quyi qismida 60-yillarda har birining uzunligi qariyb 100 kilometr bo'lgan bir necha yirik kollektor-zovur tarmoqlari qurildi. Ularning o'rtacha yillik suv sarfi qariyb 5 — 20 m/sek chamasida bo'lib, ko'pchiligi suvini Orol dengizining qurib qolgan qismiga quymoqda. Amudaryo havzasida suv taqchilligining kuchayishi bilan suv zaxirasidan oqilona foydalanish muammosi tobora keskinlasha boshladi. Amudaryoning suv oqimini faqat mavsumlararo tartibga solishdan tashqari ko'p yillik suv oqimini ham tartibga solish zarur bo'ldi. Buning uchun Amudaryo havzasining tog'li qismida Vaxsh daryosida Norak suv ombori (to'liqsuv hajmi 10,5 kilometr kub, foydali suv sig'imi 4,5 km³) ishga tushirildi. Loyihalangan Rog'un suv ombori (to'liq suv hajmi 14 km³, foydali suv sig'imi 8,7 km³) va boshqa qurilishi daryo suvining ko'p yillik suv oqimini tartibga solishga imkon beradi. 1992 yilda Amudaryo va Sirdaryo suv resurslarini Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari o'rtasida barcha imkoniyatlarni to'g'ri hisobga olgan holda taqsimlanishi uchun Amudaryo (Urganch shahrida) va Sirdaryo (Toshkent shahrida) havza suv xo'jaligi boshqarmalari tashkil qilindi. Boshqarmalar yil boshida mazkur havzalarda joylashgan mamlakatlarning suvga bo'lgan talabini e'tiborga olgan holda mavjud suv boyliklarini o'zaro

taqsimlaydi (chunki har yili havzalarda turli miqdorda suv resurslari vujudga keladi). O'rta Osiyo davlatlari va Qozog'iston suv xo'jaligini muvofiqlashtirish davlatlararo komissiyasi ham Amudaryodan foydalanish bilan shug'ullanadi. Amudaryo havzasi ulkan gidroenergetika resurslariga ega. Jami gidroenergetika resurslari 63,2 million kVt ni tashkil qiladi. Havza bo'yicha mazkur gidroenergetika resurslarining 29,8% Panj, 38% Vaxsh, 5,6% Kofarnihon, 3,0% Surxondaryo, 1,0% Qashqadaryo, 5,4% Zarafshon, 17,1% Amudaryo havzalariga to'g'ri keladi [6]. Hozirgacha Amudaryo havzasidagi gidroenergetika resurslarining faqat 2% dan ziyodroq qismi amadda foydalanilmoqda. Ishga tushirilgan gidroinshootlarning eng kattasi Vaxsh daryosining Pulisangin darasida qurilgan Norak suv ombori va GESdir. 60-yillargacha Amudaryoda suv transporti keng yo'lga qo'yilgan edi. Lekin, keyingi yillarda Chorjo'y — Qo'ng'iro't temir yo'lni qurish hamda avtomobil yo'llari tarmoqlarining rivojlanishi, ayni vaqtda daryoning sayozlanishi natijasida umumiy yuk tashishda Amudaryo suv transportining hissasi keskin kamayib ketdi.

5 Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. – VIII в. н.э. – М.: ИВЛ, 1999. – 356 с.; ўша муаллиф. Реконструкция верований древних хорезмийцев по археологическим материалам // Калалыгыр 2. Культный центр в Древнем Хорезме IV-II вв. до н.э. – М.: ИВЛ РАН, 2004. – С. 213-236.

6 Хорезм в истории государственности Узбекистана / Ответ. ред. Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимова. – Ташкент. «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2013. – С.14-48, 72-85.

O'rta asrlarda qoraqalpoqlarning asosiy etnik o'zagini pecheneg va o'g'uz qabilalari tashkil etgan. Ular nafaqat Amudaryoning quyi oqimi bo'ylari va Orol dengizining qirg'oq hududlarida, balki Orolbo'yi mintaqasidan Volgagacha bo'lgan keng hududlarda istiqomat qilishgan. Keyinchalik, ularning taqdiri XI asrda Irtishdan kelgan qipchoqlar bilan bog'liq bo'lgan. Ular mog'ullar istilosidan oldin va keyin ushbu qabilalarning bir qismi bo'lgan. Qipchoqlarning qaqshatqich hujumlari ostida pecheneglarning bir qismi g'arbga ko'chib o'tadi. Rus yilnomalarida ular "qora qalpoqlar" (XII-XIV asr) yoritilgan. Orol dengizi qirg'oqlariga joylashgan boshqa qismi esa sharqiy manbalarida "qavmi kulahi siyah" (qora qalpoq kiygan qavm) nomi bilan qayd etilgan.

Nihoyat, Oltin O'rda parchalanganidan so'ng, mog'ullar hukmronligidan keyingi davr qoraqalpoq etnik tarixida muhim bosqich hisoblanadi. XVI-XVII asrlarda qoraqalpoqlarning katta qismi Sirdaryoning o'rta va quyi oqimida yashagan. Qoraqalpoqlarning qolgan qismi esa XVI asrda daryo o'zanining Orolga burilishidan so'ng Amudaryoning quyi oqimi hududlariga joylashgan.

XVIII asr o'rtalariga kelib, qoraqalpoq aholisining bir qismi Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysiga ko'chib o'tadi. Ushbu davrda aholining ko'pchilik qismi Amudaryo va Janadaryoning (Janubiy Orolbo'yi mintaqasi) quyi oqimida yashagan. Ular tashlandiq sug'orish kanallarini tiklab, yangi kanallar qurdilar va serhosil ekin maydonlarini barpo etdilar. Har bir ovul baland tuproq devorlar bilan o'ralgan va qabila yetakchisining qo'rg'onini o'rab olgan qal'aga ega bo'lgan.

Qoraqalpoqlar ikki asosiy urug' birlashmalaridan (aris) tashkil topgan: o'n to'rt urug' va qo'ng'iro't. Ular ham o'z navbatida qabila va urug' guruhlaridan tashkil topgan. "O'n to'rt urug'" (14 qabila) urug'lar birlashmasi tarkibiga xitoy-qipchoq, kenagas va mang'it qabilalari kirgan. Aris-qo'ng'iro'tlar esa ikki eng katta urug' birlashmasi hisoblangan hulluk va jounquridan

tashkil topgan. Har bir guruh, qabila yetakchisi (biy) yoki harbiy qo'mondonlar (botir) tomonidan boshqarilgan.

XIX asr boshida qoraqalpoqlar Xiva xonligi tarkibiga kirgan. Biroq, O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgandan so'ng, qoraqalpoqlar, Turkiston-general gubernatorligi va Xiva xonligi (Xo'jayli va Qo'ng'iro't bekliliklari) tarkibiga o'tgan.

Xulosa. XX asrning 20-yillariga kelib, Amudaryo quyi oqimi hududlarida tarixiy voqea yuz berdi. Ushbu davrda Qoraqalpog'iston avtonom viloyati tashkil etildi. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, Qoraqalpog'iston O'zbekiston tarkibidagi suveren respublikaga aylandi. Hozirgi Amudaryo havzasining janubida, qumli bo'shliqda, Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti Nukus shahri joylashgan. Ushbu shahar O'zbekistonning "eng yosh" shaharlaridan biri hisoblanadi. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda Nukus shahri o'rnida qadimiy Shorsha shahri joylashgan edi. Hozirda kunda Qoraqalpog'iston boy tabiiy va madaniy boyliklarga ega, rivojlanayotgan mintaqasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar /Используемая литература/References:

1. Воробьева М.Г. Ранние терракоты древнего Хорезма // История, археология и этнография Средней Азии – М.: Наука 1968. – С. 135–147.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – 352 с.; ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М. – Л.: АН СССР, 1948. – 328 с.
3. Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. – М., 1960. Вып. 3. – 348 с.
4. Гуломов Я. Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1959. – 324 б.; Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.; Наука, 1969. – 5 Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. – VIII в. н.э. – М.: ИВЛ, 1999. – 356 с.; ўша муаллиф. Реконструкция верований древних хорезмийцев по археологическим материалам // Калалыгыр
5. Культовый центр в Древнем Хорезме IV-II вв. до н.э. – М. : ИВЛ РАН, 2004. – С. 213-236.
6. Хорезм в истории государственности Узбекистана / Ответ. ред. Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимова. – Ташкент. «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2013. – С.14-48, 72-85. 254 с.
7. Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма (Оссуарии) // Тр. ХАЭЭ. – М., 1971. Т. VI. – 126 с.
8. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья // Тр. ХАЭЭ. – М.: Наука, 1981. Т. XII. – 172 с.
9. Мамбетуллаев М. История и культура Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э. – в IV в.н.э.): Автореф. дисс... докт. ист. наук. – Ташкент: Институт истории АН РУз, 1994. – 57 с.
10. Ходжаниязов Г.К. Фортификация древнего Хорезма (VI в. до н.э. – IV в.н.э.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Нукус: ККО АН РУз, 1996. – 20 с.